

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520310>

FALSAFANING JAMIYATDAGI TUTGAN O‘RNI

Elyor Murotov

elyormurotov93@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qtuvchisi

Shoimov Husan Nurmamat o‘g‘li

hsnshoimov@gmail.com

Abirov Jo‘rabek Xolto‘ra o‘g‘li

Jorabekabirov47@gmail.com

Rajabov Avazbek Elbekovich

avazbek20040602@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

***Annotatsiya:** Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma‘noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llanadi. Har qanday xolda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a‘zosi deb ataladi.*

***Kalit so‘zlar:** Jamiyat taraqqiyoti, falsafiy tafakkur, demokratik jamiyat, mantiqiy fikrlash, Suqrot, O.Toffler.*

Kirish:

Falsafa inson hayotida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat bilimlarni, balki hayotiy tajribalarni va insoniyatning asosiy masalalariga oid savollarni ham o‘rganadi. Falsafa insonlar o‘rtasida mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va dunyoni tushunishga yordam beradi.

Falsafaning asosiy jihatlari:

1. Tushuncha va bilim: Falsafa o'zining asosiy maqsadi sifatida bilim va tushunchalarni aniqlashga intiladi. U insonning mavjudligi, bilimning tabiati, haqiqat va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq savollarni o'rganadi.

2. Mantiqiy fikrlash: Falsafa mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, insonlarga o'z fikrlarini tahlil qilish, baholash va ma'lumotlarni to'g'ri sharhlashda yordam beradi.

3. Axloqiy tamoyillar: Falsafa axloqiy savollarni ko'taradi. Inson qanday yashashi kerak? Nima yaxshi, nima yomon? Bu kabi savollar falsafaning axloqiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

4. Dunyoqarash: Falsafa insonning dunyoqarashini shakllantiradi. Insonning hayotga va atrofdagi voqealarga bo'lgan munosabati falsafiy qarashlar orqali rivojlanadi.

5. Ijtimoiy va siyosiy masalalar: Falsafa ijtimoiy va siyosiy muammolarni ham o'rganadi. Adolat, erkinlik, tenglik kabi tushunchalar falsafiy muhokamalar orqali shakllanadi.

Falsafa insonning o'zligini anglashiga, hayotidagi maqsadlarni belgilashiga va atrofdagi dunyoni tushunishga yordam beradi. U ko'plab fanlar bilan, jumladan, psixologiya, sotsiologiya va siyosatshunoslik bilan o'zaro aloqadadir. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud.

Jamiyat tarixida ijtimoiy hayot va ijtimoiy munosabatlarning: a) stixiyali; b) ongli rivojlanishini alohida ta'kidlash kerak. Uning stixiyali ko'rinishi ongning ta'sir doirasidan xoli ekanligini anglatadi. Bunday rivojlanish hamma vaqt ham samarali va maqsadga muvofiq manfaatlar uyg'unligini aks ettirmaydi. Ongli rivojlanish esa aksinchadir. Jamiyatning demokratlashuvi tufayli jamiyatshunoslikdagi «ijtimoiy borliq ijtimoiy ongga bog'liq emas, ijtimoiy ong ijtimoiy borliqni aks ettiradi va u bilan belgilanadi», degan markscha yondashuvga qarashlar o'zgardi. Mustaqillikgacha falsafiy ongda ana shu prinsip belgilovchi ahamiyatga ega bo'lgan. «Ijtimoiy ong» va «ijtimoiy borliq» munosabatida ijtimoiy borliqqa ustunlik berilgan. Ya'ni, ijtimoiy ongning ijtimoiy borliq bilan bog'liqligini tan olmaslik ijtimoiy hayotni idealistik talqin etish bilan barobar baholangan. Bu oxir-oqibatda falsafiy ongning ko'rinishi sifatida ijtimoiy ongning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini bir tomonlama buzib talqin etilishiga sabab bo'lgan.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O.To'ffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra, jamiyatlar taraqqiyotiga binoan agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra, har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan xolda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muxtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik – jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashish mumkin. Jamiyat beqarorlikning izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzulishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy havfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi

Mavjud tizimdan sifat jihatdan yangi tizimga o'tish jarayonida islohotlarni ijtimoiy lahzalarsiz amalga, odamlarning tafakkurini o'zgartirish, yangi qonun va normalar ishlab eskizidan foydalanish jamiyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy rivojlanishning o‘zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg‘or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilish lozim bo‘lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo‘lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bogliqdir».

Xulosa: Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rni falsafiy muammolar tizimida muhim o‘rin tutadi. Turli falsafiy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo‘lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o‘zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ruyobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «O‘zligingni bil» degan hikmatli so‘zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Sharq falsafasi tarixida ham inson bosh mavzulardan biridir. Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2003.
2. Karimov I.A. Bizning maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., 2005.
3. Karimov I.A. Vatanimiz tinchligi va havfsizligi o‘z kuch qudratimizga va halqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog‘liq. T., 2004.
4. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. T., 2002.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l-demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T., 2003.